

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnalı bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrdagi 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYeva T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

FIZIKA – TEXNIKA

J.Xudoyberdiyev, A.Reymov, R.Kurbaniyazov, SH.Namazov, O.Badalova, A.Seytnazarov	248
Qoraqalpog'istonning jelvakli fosforit uni asosidagi faolashgan superfosfat	
M.Ahmedov, Z.Teshaboyev	
"Hayot davomida o'qish" tamoyili asosida innovatsion xarakterga ega bo'lgan "mavzu ishlanmasi" tayyorlash.....	255
	KIMYO

S.Samatov, A.Ikramov, O.Ziyadullayev, S.Abduraxmanova	259
Benzaldegid va uning xosilalarini fenilatsetilen ishtirokida enantioselektiv alkinillash jarayoni.....	
I.Asqarov, G'.Madrahimov, M.Xojimatov	
³ O-ferrotsenil benzoy kislotasini ayrim hosilalarining biologik faolligini o'rganish	267
U.Mamatkulova, X.Isakov, I.Askarov	
Sarimsoqpiyoz va po'stining kimyoviy tarkibi, shifobaxshlik xususiyatlari.....	271
I.Askarov, Z.Nazirova	
Qizil lavlagi tarkibidagi ayrim kimyoviy birikmalar va ularning ahamiyati	275
I.Asqarov, B.Nizomov	
Yeryong'oq va yong'oq mevasining qiyosiy kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari	279
I.Mamatova, I.Askarov	
«Oltin vodiylar» oziq-ovqat qo'shilmasining gipergrlikemik xususiyatlari	283
I.Askarov, X.Isakov, SH.Turaxonov	
Monometilolmochevinagallat efirlarini olish	286

BIOLOGIYA, QISHLOQ XO'JALIGI

A.Xusanov D.Kapizova, G.Zokirova, N.Oxunova	
Farg'ona vodiysi sharoitida ochiq urug'li daraxt va butalarning so'rvuchi fitofaglari (lachnidae, diaspididae): faunasiga va ekologiyasi.....	290
M.Nazarov, M.Ma'murova, A.Xamidov M.Mirzaxalilov	
Baliqchilik xo'jaligi hovuzlarida fitoplankton tarkibi va o'simlikxo'r baliqlarni yetishtirishda ularning o'mni	295

ILMIY AXBOROT

Z.Xosilova	
Oshiqcha tana vazni va uning aholi guruhlari (18-59 yoshlilar) orasida uchrash holati	299
S.Mamadalieva, M.Omonova, B.Saydaliyev	
Mahalliy xomoshyodan adsorbentlarda parafinni chuqur tozalash uchun kombinirlangan texnologiya	302
A.Xolikulov	
Buxoro xonligining Rossiya bilan siyosiy aloqalari tarixidan.....	306
X.Jumaniyozov	
Markaziy Osiyorning tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy, logistik imkoniyatlarining geosiyosiy jarayonlarga ta'siri.....	312
A.Hakimov	
Sovet davri maktab o'qituvchilarining kundalik hayoti	316
G'.Israilov	
Sakkokiad adabiy merosi o'rganilishi manbalari xususida.....	321
S.Xoliqov	
Milliy xavfsizlikni ta'minlash jarayonida O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisi senati ishtirokining tashkiliy va nazariy-huquqiy asoslari	325
O.Axmadjanova	
Badiiy asarda psixologik (ruhiy) tahlil printsiplari va usullari.....	330
D.Buzrukova	
"Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o'ziga xosligi	334
K.Topvoldiyev	
Lermontov M.Yu. asarlarida XIX asr kavkazi.....	338
S.Abduraxmonov, SH.Ibragimov	
Ta'lim tizimida baholashning asosiy mezonlari va uning ahamiyati	345
A.U.Choriyev, G.O Temirova,	
Yetuk kimyogar, kamtarin olim	349

SOVET DAVRI MAKTAB O'QITUVCHILARINING KUNDALIK HAYOTI
(Farg'onona vodiysi misolida)

ПОВСЕДНЕВНАЯ ЖИЗНЬ УЧИТЕЛЕЙ СОВЕТСКИХ ВРЕМЕН
(на примере Ферганской долины)

TEACHERS OF THE SCHOOL OF SOVIET TIMES DAILY LIFE
(On the example of Fergana Valley)

Hakimov Ahadjon Obbosovich¹

¹Hakimov Ahadjon Obbosovich

– FarDU magistranti.

Annotatsiya

Ma'lumki, sovet davri maorifi metodologiyasida kommunizm g'oyasi asosida o'qituvchi kadrlarni tayyorlash, kommunistik partiya g'oyalalarini yoyish va kelajak avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri bo'lgan. shuning uchun umumta'lim maktablarining faoliyati asosan «rivojlangan sotsializm» g'oyasini o'quvchilarga singdirish, ularni «kommunistik ruhda» tarbiyalashdan iborat bo'ldi. Mazkur maqoladagi sovet davri ta'lismizning o'ziga xos uslublari, maktab o'qituvchilarining moddiy ta'minlanganlik darajasini yaxshilash uchun qabul qilingan qarorlar, o'qituvchilarning tashqi ko'rinishlari va umumiy faoliyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar davriy nashrlar, arxiv materiallari asosida yoritildi.

Аннотация

Известно, что в методологии Просвещения советского периода одной из важных задач была подготовка педагогических кадров на основе идеи коммунизма, распространение идей Коммунистической партии и воспитание будущего поколения. Поэтому деятельность средних школ заключалась главным образом в внедрении идеи "развитого социализма" в учащихся, воспитании их в "коммунистическом духе". Информация о специфических методах системы образования советского периода в этой статье, решения, принятые для повышения уровня материальной обеспеченности школьных учителей, внешний вид и общая деятельность учителей были освещены на основе публикаций даврия, архивных материалов.

Abstract

It is known that in the methodology of the Enlightenment of the Soviet period, one of the important tasks was the training of teaching staff on the basis of the idea of communism, the dissemination of the ideas of the Communist Party and the upbringing of the future generation. therefore, the activities of secondary schools consisted mainly in the integration of the idea of "developed socialism" into students, educating them in the "Communist spirit". The information on the specific methods of the Soviet period education system in this article, the decisions taken to improve the level of material availability of school teachers, the appearance and general activities of teachers were covered on the basis of davriy publications, archival materials.

Kalit so'zlar: Sovet davri, maorif, kommunistik mezon, kommunistik tarbiya, maktablar faoliyati, o'qituvchi madaniyat, o'qituvchining moddiy ta'minoti.

Ключевые слова: советская эпоха, просвещение, коммунистический критерий, коммунистическое воспитание, деятельность школ, культура учителя, материальное обеспечение учителя.

Key words: Soviet era, enlightenment, Communist criterion, Communist upbringing, activities of Schools, teacher culture, material support of the teacher.

KIRISH

Sovet Ittifoqi davrida Markaz ideologlari tomonidan o'ylab topilgan xayoliy va noilmiy aqidalar girdobida, butun mamlakatda bo'lganidek, Farg'onada ham maorif, oliy ta'lism, ilm-fan, san'at o'ta siyosiyashgan holda rivojlanishga majbur qilindi.

Bu davrda barcha milliy respublikalar va millatlar madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yagona «sovet madaniyati» yaratilganligining e'tirof etilishi SSSRga birlashtirilgan barcha halqlar ma'naviyatining bundan keyingi yo'nalishini belgilab berdi. Ushbu davrda madaniyatga xos, uning rivojlanishi uchun muhim omil bo'lgan erkinlik, demokratiya batamom yo'q qilindi. Madaniyat, ayniqsa, milliy madaniyatning «rivoji» maxsus qolipga solindi. Siyosiy o'chovlarga, kommunistik mezonga javob bermagan har qanday asar yo'qqa chiqarildi, uning muallifi esa jamiyatga yaroqsiz shaxs sifatida «chetga surib» qo'yildi. Ayni paytda, sovet davri o'zbek madaniyati uchun to'liq tushkunlik davri deyish ham xato bo'lur edi. Chunki bu davrda mafkuraviy tazyiqlar, qolipga solishlar kuchaygan bo'lsa-da, madaniyat ma'lum darajada rivojlandi. Bu yillarda yaratilgan ijobjiy ishlar, omma orasida olib borilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'ta siyosiyashgan va mustabid tuzum

ILMIY AXBOROT

uchun xizmat qilgan bo'lsa ham, u baribir o'zbek halqining shu davrdagi milliy madaniyati bo'lib goldi, halqning madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirishga xizmat qildi. Xususan, bu maorif, oly ta'lum muassasalariga tegishlidir[7.571].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maqola umum qabul qilingan tarixiy-metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar aholini turmush darajasini oshirish, mehnat faoliyatini yaxshilash uchun qaratilgan. Shu jumladan maktab o'qituvchilarining moddiy ta'minlanganlik darajasini yaxshilash uchun qator qarorlar qabul qilindi. O'zbekistonda faoliyat olib borgan o'qituvchilarning sovet davridagi ijtimoiy qiyofasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili bugungi kunda davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatni aniq belgilab olishga kerakli manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqola yozish jarayonida G'.Mahmudnazarov, M.Ochilov, N.Ochilova, K.Ergashyev, E.Tajimirzayev, N.Shapirovalarning ilmiy tadqiqot ishlariga murojaat qilindi.

Shu o'rinda ta'kidlashimiz kerakki, sovet davri maorifi metodologiyasida kommunizm asoschilaridan biri V.I.Leninning "Biz endilikda o'qituvchi kadrlarning yangi armiyasini shakllantirishimiz lozim. Ular partiya saflarida hamohang bo'lishlari, partiya g'oyalarni yoyish va keljak avlodni tarbiyalashlari kerak" degan so'zlari oqibatida o'qituvchilar doimo partianing diqqat-e'tibor markazida bo'lgan. "Sovet o'qituvchisi partianing ishonchli vakilidir" degan shior 70 yil davomida dolzarbligini yo'qotmadni.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maktab – kadrlar tayyorlash tizimining dastlabki bosqichidir. Sovet davrida maktablarning kundalik hayoti qat'iy ishlab chiqilgan tartib asosida amalga oshirildi. O'quv kuni boshlanishi va uni qanday o'tkazish, o'quvchilar jalb etilgan jamoat tashkilotlari – oktyabr, pioner, komsomoldan tortib, o'quvchiga talim-tarbiya berish siyosiy jihatdan qolipga solingen edi. Keyinchalik psixolog va pedagoglar tomonidan an'anaviy sovet ta'lum tizimini ijodiy fikrashga qodir bo'lmagan, partiya uchun xizmat qiladigan armiya tarbiyalashda ayblandi. Chunki o'qituvchilar partianing quroliga aylanib ulgurgandi.

Kommunistik partiya o'z g'amxo'rligini ko'rsatib qo'yish maqsadida turli islohotlarni amalga oshirgan. O'qituvchilar qatlarni shakllantirish jarayonida sovet hokimiysi mustahkam tayanch nuqtaga ega dastur tuzib chiqishga e'tibor qaratti. Chunki o'qituvchilar g'oya targ'ibotchisi, yoshlar ongiga, aholi bilan tushuntirish ishlari olib borishda eng asosiy qurol bo'lib xizmat qilardi. Ayniqsa qishloq joylarda "o'qituvchi" barcha narsani anglatishi mumkin edi. O'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarni komsomol tarkibiga o'tkazish, kommunistlar sonini ko'paytirish yo'li bilan sovet g'oyalari targ'iboti uchun ko'plab malakali mutaxassislar tayyorlanar edi. Qishloq o'qituvchilar uchun imtiyozlar, oylik maoshlarini oshirish, rag'batlantirish pullari, moddiy yordam, kommunal to'lovlar uchun qo'shimcha pul berish kabi moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari tashkil etildi.

Ma'nnaviy tomonidan rag'batlantirish uchun 1940 yil 10 fevraldan "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi" unvoni joriy etilgan bo'lsa-da[8.3], o'qituvchilarning kasb bayrami 1965 yildan boshlab har yili 5-oktyabrda nishonlana boshlandi[1].

Urushdan keyingi yillarda o'qituvchilarining kiyinish madaniyati ancha tartibga tushdi. O'qituvchilarining kiyinish madaniyati, yashash muhiti moddiy ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. SSSR Ministrlar Kengashining 1948 yil 10 fevraldag'i "Boshlang'ich va yetti yillik maktablarning o'qituvchilari uchun yengillik va imtiyozlar to'g'risida"gi qaroriga asosan boshlang'ich, yetti yillik, o'rta maktab o'qituvchilarining oylik maoshlari 15% ga oshirildi. Oylik ish haqi o'rtacha 120 so'mni tashkil etdi. Bundan tashqari pedagogik stagi 25 yildan kam bo'lmagan o'qituvchilarga oylik ish haqining 40%idan kam bo'lmagan nafaqa tayinlandi. Qishloq o'qituvchilariga esa yer uchastkalari, yashash uchun bepul uy-joy, sentyabr oyigacha qishda foydalanish uchun yoqilg'i, yonilg'ilar yetkazib berilishi ko'zda tutildi.

Sovet davri Farg'ona vodiysida yashovchi aholi farzandlarining kundalik hayotida maktab va bog'chalar muhim o'rinn tutgan. Qishloq bolalarini maktablarga olib borish uchun kolxoz va sovxozi avtobuslar bilan ta'minlana boshlagan. 80-yillar arafasida Andijon viloyatida boshlang'ich, sakkiz yillik va o'rta maktablarning umumiyligi soni 603 ta bo'lib, ular dan 516 tasi qishloq maktablari edi. Namangan viloyatida 515 ta maktabning 415 tasi, Farg'ona viloyatidagi 667 ta maktabning 550 tasi qishloqlarda joylashgan. Uchchala

viloyatlar qishloqlarida sakkiz yillik va o'rtamaktablar soni shaharlardagiga nisbatan kam, lekin boshlang'ich maktablar soni ko'p edi[5.22].

1980-1985-yillarda qishloq maktablarini yiriklashtirish ishlari amalga oshirildi. Bu yillarda maktabgacha ta'lif tizimiga ham alohida e'tibor berilgan. 1965-1970-yillarda Andijon viloyatida jami 4500 o'rini bolalar bog'chalari ishga tushirilgan bo'lsa, shulardan 2000 o'rini kolxozlarda tashkil etilgan edi.

1980-yillarda halq ta'limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag' 11%dan 8%ga kamayib ketdi. Respublikaning barcha viloyatlaridagi maktablarning 20-60%i zarur o'quv qurollari, asbob-anjomlar bilan jihozlanmay qolaverdi, 50%dan ortiq maktablarda issiq ovqat bufetlari tashkil etilmadi. Kuni uzaytirilgan guruhlar ishi ayniqsa o'lda-jo'lda qoldi. 80-yillarda 1-8-sinf o'quvchilarining atigi 8-9 %ini bunday guruhlarga jalb etilgan edi, xolos[11.20].

80-yillarda O'zbekiston maktablarida ahvol sifat jihatidan o'zgarmay qolaverdi. Maktablar jahon tajribalaridan, zamonaviy texnika va o'qitish vositalaridan foydalanmadi. Ularning moddiy-texnika bazasi yaxshilanmadi. To'g'ri, bu yillarda maktablar, o'quvchilar, o'qituvchilar soni yildan-yilga ortib bordi, son ko'satkichlari kishini hayratga solar darajasida ortdi.

Maktab o'quvchilarining o'quv rejasidagi soatlarini o'zlashtira olmasligi odatiy hol bo'lib qoldi. Bu ularni paxta va boshqa qishloq xo'jalik ishlariga ko'proq jalb qilinishi bilan izohlanadi. O'quv yilining 3-4 oyi ana shunday majburiy tadbirlar bilan band bo'lishga ketar edi. Bu esa o'zbek o'quvchisini jahon standartlaridan ortda qoldirib, zamonaviy fan sohalarini o'zlashtirishga imkon bermasdi.

Shu o'rinda maktab faoliyatiga doir ijobjiy holatlarga ham to'xtalib o'tsak. Maktab o'qituvchilarning ish kuni deyarli bir xilda o'tadi. Darsga kirish uchun qo'ng'iroq chalingunicha o'qituvchi darsga tayyor bo'lishi lozim. O'qituvchi ilmiy bo'lim tomonidan tasdiqlangan dars ishlanmasi, sindf jurnali, kitob, ko'rgazmali qurollar bilan sindf xonasiga kirib boradi. Albatta, dars jarayonining qanday borishi o'qituvchi mahoratiga bog'liq. O'quvchi uchun kelgusi kasb tanlashda o'qituvchi shaxsi juda katta ahamiyatga ega. 1970-yilda o'rta maktablar uchun nizom qabul qilindi[3]. Endilikda o'qituvchining o'zini tutishi yanada qattiq nazorat qilinadigan bo'ldi. Pedagogik ahloq qoidalarida haqqoniylilik, halollik, adolat talablari ko'rsatilgan bo'lsada, amalda o'qituvchi to'liq o'zlashtirish berishi, "ikkisiz ikki yillik" dasturi asosida ishlashi talab etildi[4.36]. Oqibatda ta'lif sifati pasayib bordi.

Maktab o'qituvchilar uchun biron bir forma, majburiy kiyim haqida qaror qabul qilinmagan. O'qituvchi odob-axloq qoidalariga asoslanib odmi kiyinishi kerak edi. O'qituvchi ayollarning deyarli 90% i boshlarida ro'mol, odmi ko'yaklari bilan ko'z oldimizda gavdalananadi. Taqinchoqlar taqib kelish, ortiqcha bo'yanishni o'qituvchilar o'ziga ep ko'rishmagan. Erkaklar ham ko'yak, kostyum-shim, ko'pincha boshlarida do'ppi bilan ishga kelishgan. Ularning kiygan kiyimlari o'quvchilar uchun namuna hisoblangan. Yuqori sindf o'quvchi qizlari ayol o'qituvchilarning soch turmaklariga havas qilib qarashardi.

O'qituvchilarning gapireshi, o'zini tutishi doimo o'quvchining diqqat e'tiborida bo'lgan. Davriy nashrlarda maktab hayoti haqida yozilgan maqolalarda o'qituvchilarning tashqi ko'rinishlari tasvirlangan. Muallif maktabdagi eng hurmat qiladigan o'qituvchisi haqida eslab quyidagi so'zlarni yozadi: "Hanuz esimda: meni hammadan ham o'qituvchining kiyim-boshi lol qoldirdi. U nihoyatda ozoda va sipo kiyangan, egnida ohori to'kilmagan oq ko'yak ustidan o'sha davrlarda moda bo'lgan charliston kostyum-shim, bo'ynida gul dor galstuk, oyog'ida yalt-yalt qora tufti, boshida taxi buzilmagan chust do'ppi". Bu o'qituvchiga qarab o'zida o'qituvchilik kasbiga intilish paydo bo'lganligi va o'sha o'qituvchiga o'xshashga harakat qilganligini aytgan. Lekin o'qituvchilar orasida kiyinish madaniyatiga amal qilmaydiganlar ham ko'plab uchragan. Ayol o'qituvchilarning rang-baranglikda kiyinishi davriy nashrlarda tanqid qilingan[8.3].

Tanqidiy ruhdagi maqolalarda esa ba'zi maktablardagi ko'ngilsiz holatlar tahlil qilingan[6.2-3]. "O'qituvchi o'z yoshiga yarashmagan qimmatbaho kofta-yubka kiyib boshiga yaltiroq ro'mol o'ragan, barmoqlarida uzuk. Mahallani dimog'dor karchalon ayollariga o'xshaydi. To'yma-to'y yuradigan bekorchi ayollarga o'xshab olgan". Maktab jamoasining aksariyatini ayollar tashkil qilgan. Tekshirish uchun kelgan nazoratchi ularning biri yal-yal yongan atlas kuylakda, boshqasi rangi bir-biriga tushmaydigan kofta-yubka kiyib olganligini tanqid qilgan[2.2]. O'qituvchilarni odmiroq va did bilan kiyinishga chorlaydi. O'quvchi tarbiyasining mazmuni o'qituvchi kiyimi rang-

ILMIY AXBOROT

barangligiga qarab emas, balki ish uslubi rang-barangligiga qarab o'chanadi. Bunda uning mahorati, tajribasi muhim rol o'ynaydi. Bu fikr aksioma, ya'ni isbot talab qilmaydi.

Nafaqadagi o'qituvchilar bilan suhbat jarayonida shu narsaga amin bo'ldimki, o'qituvchining bisotida bir necha kiyimi bo'lgan xolos. O'qituvchining kamtargina oyligi faqat eng kerakli narsalarni xarid qilish uchun sarflangan. Garchi o'qituvchilar uchun maxsus forma joriy qilinmaganligiga qaramay, o'qituvchilar ma'lum bir kiyinish qoidalariiga amal qilishgan. O'z o'qituvchilarini ta'riflash chog'ida kishilar ularning oddiygina, lekin did bilan kiyanganini e'tirof etadilar. Shahar joylarda yashab, ishlayotgan o'qituvchilarning kiyim-kechagi qishloq hududlarida yashayotganlarnikidan yaxshiroq edi. Chunki qishloq magazinlarida kerakli tovarlarni yo'qligi va pul yetishmasligi turfa xil kiyinish uchun imkon bermasdi. Asosan to'q rangli qora, jigarrang, ko'k rangli kiyimlar kiyib yurishgan. Erkaklar boshida do'ppi, ayollar ro'mol o'raganlar. Moddiy yetishmovchilikga qaramay, o'qituvchilar sodda, lekin did bilan kiyinishga harakat qildilar. Shu bilan birga o'qituvchilarning tashqi ko'rinishlari shahar va qishloq joylarda bir-biridan farq qilishi davom etdi. Uslubchilar o'qituvchilarga ko'rsatmalarida shunday yozganlar: O'qituvchi yosh avlod oldida o'z obro'ini to'kib qo'ymasligi uchun tashqi ko'rinishi haqida juda qattiq qayg'urishi kerak. O'qituvchi boshqalardan ko'ra chiroyliroq, halol, sezgir, samimiy, quvnoq va tashqi ko'rinishi yoqimli bo'lishi kerak[10.756-764].

Maktabda o'qituvchilar xonasining alohida o'rni bor. O'qituvchilar turli masalalardagi o'z muammolari bilan o'rtoqlashishlari mumkin bo'lgan. Dars tahlili, tushlik masalasi, shaxsiy masalalar haqida fikr almashishgan. Hatto darsdan keyin o'qituvchilar xonasida ayol o'qituvchilar to'planib to'planib qo'shiq aytib raqs tushishgan. Madaniy dam olishning bu xil turiga maktab rahbarlari ham e'tiroz bildirmaganlar. Tug'ilgan kunlar ham shu xonada nishonlangan. Lekin barcha maktablarda ham o'qituvchilar xonasi bo'lmagan. Davriy matbuotlarda 1980-1990 yillar orasida o'qituvchi darsdan so'ng dam olishi, o'z ustida ishlashi, fikr almashishi va hordiq chiqarishi uchun imkoniyat yaratilishini, o'qituvchilar uchun dam olish xonalarini ajratilishini talab qilgan maqolalar ham chop etila boshlandi[12.3].

O'qituvchining moddiy ta'minotini o'sib borishi 1960-1975 yillar davomida yaxshigina ko'rsatkich bergan bo'lsa, 1980 yillardan boshlab pasaiyb bordi. 1960 yillarning boshlariga kelib halq xo'jaligining ta'llim va ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ishchi-xodimlarning ish haqi darajasida sezilarli tafovut yuzaga keldi. Masalan, 1958 yilda ta'llim oluvchilarning o'rtacha oylik ish haqi sanoat ishchilariga nisbatan 20 % past bo'lgan. Ish haqi farqi halq xo'jaligining ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchilarining ish haqi regulyarizatsiyasidan keyin yana ham ortdi va 1960 yilda uning tarkibi allaqachon 24% ni tashkil qildi. SSSR Ministrler Kengashi Markaziy Ijroiya qo'mitasi 1964 yil 15 iyul kuni "Ta'llim va sog'liqni saqlash, uy-joy va kommunal xizmatlar xodimlari ish haqini oshirish" to'g'risidagi №620 sonli qarorini qabul qildi. Ushbu qaror qabul qilingan vaqtida ta'llim sohasi xodimlariga ish haqi to'lashda quyidagi kamchiliklar bor edi. O'qituvchilar rasmiy ish haqi darajasi moddiy ishlab chiqarish ishchilar bilan solishtirganda past edi; Maktab joylashishiga qarab o'qituvchi ish haqining turli guruhlari bor edi. (shaharlar va qishloq joylarda); Maktab o'quvchilarining yoshiga qarab o'qituvchilarga to'lanadigan haqda farq bor edi.

Stavkalarning uch guruhi mavjud edi: eng past (1-4 sinflarda), yuqori (5-8 sinflarda) va nisbatan yuqori (9-10 sinflarda). Xodimlarning ta'llim darajasi va ishbilarmonlik ko'nikmalarini oshirish uchun moddiy rag'batlantirish zaif bo'lib, oliy ma'lumotli va unga ega bo'lmagan o'qituvchilar uchun ish haqi stavkalari miqdorida farq kam edi. 1-4 sinflarda oliy ma'lumotli o'qituvchilar uchun ish haqi darajalari yo'q edi. Ularga o'rta pedagogik ma'lumotga ega o'qituvchilar uchun nazarda tutilgan darajalar bo'yicha maosh to'landi. Qo'shimcha ishlar uchun to'lov (sinf rahbarligi, yozma ishlarni tekshirish) o'qituvchilarning haqiqiy mehnatiga yarasha to'lanmadidi. 1964 - yilgi islohot maktab va boshqa o'quv yurtlarining rahbar xodimlariga haq to'lashda bir qator o'zgarishlarni kiritdi. Endi ularning ish haqi hajmi o'quvchilar soni, ta'llim darajasi va pedagogik ish tajribasiga bog'liq bo'ldi. Haq to'lashning yangi shartlari joriy etilishi natijasida oliy ma'lumotli o'qituvchilarning ish haqi 26,5% ga, to'liqsiz oliy ma'lumotlilarniki 21,2% ga, o'rta maxsus ma'lumotlilarniki-19,6% ga, umumiy o'rta ma'lumotli – 13,3% ga oshdi. SHunday qilib, 1964-yilgi islohotdan so'ng o'qituvchilar xizmat muddati va o'qitiladigan soatlar soniga qarab 65-115 so'm ola boshladilar.

SSSR Statistika boshqarmasining 1984-yil 27-apreldagi buyrug'i bilan o'qituvchi va maorifning boshqa xodimlarini oylik ish haqi 0,10 %ga oshirildi. Oylik maoshdan tashqari o'qituvchilar uchun kommunal to'lovlar uchun alohida pul berilgan. 1984 yilning boshida Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan 40340 nafar o'qituvchiga kommunal to'lovlar uchun 53,1 ming so'm ajratilgan. Keyingi yilda 42489 nafar o'qituvchi uchun 70,1 so'm ajratilgan[9]. 1979 yilda SSSRda o'rtacha ish haqi 148,74 so'mni tashqil qilgan. 1 so'mga 100 pachka gugurt sotib olish, 100 marta telefon qilish, o'qituvchilar 110-130 so'm, injenerlar 110-130 so'm vrachlar 100-150 so'm, hamshiralalar 80-100 so'm olishgan.

Oddiy ishchilar ishning og'irligiga qarab 100 so'mdan – 400 so'mgacha olishgan. Kartoshkaning kilosi 5 tiyin bo'lganini hisobga olsak, bir kunlik tushlik ovqat 20-50 tiyinni tashkil qilgan.

1988-yilda o'rtacha oyliklar 217 so'mni tashkil qilib, o'qituvchi va shifokorlar o'rtacha 165 so'm olar, hamshiralalar 80-100 so'm olsa, ba'zi soha ishchilar 200-400 so'm olgan. Non 16 tiyin, 10 ta tuxum 1,20 tiyin, sut 26 tiyin, kartoshka 12 tiyin, tushliklar 1,40 tiyinni tashkil qilgan.

Jinsi shimlar 150 so'm, krassovkalar 50-70 so'm turgan bo'lsa, mакtab formalarini 35-40 so'mga olish mumkin edi. Agar bir oilada 3 ta mакtab o'quvchisi bo'lsa ona oyligini yarmidan ko'pi mакtab formasi uchun sarflangan[1].

1990-yillar arafasidagi iqtisodiy qiyinchiliklarni hisobga olib 1990-yil 13 noyabrda O'zbekiston SSR Prezidentining "Barcha tipdagи maktab o'qituvchilariga, bolalar uylari tarbiyachilariga qo'shimcha imtiyozlar, yuqori sinf o'qituvchilarini oylik maoshini oshirish" haqidagi qarori qabul qilindi.

XULOSA

Umumta'lim maktablarining faoliyati asosan «rivojlangan sotsializm» g'oyasini o'quvchilarga singdirish, ularni «komunistik ruhda» tarbiyalashdan iborat bo'ldi. «Komunistik tarbiya»dan ko'zlangan maqsad esa yoshlarni «proletar internatsionalizmi»ga, «katta og'alari»ga sodiqlik, sinfiylik, partiyaviylik ruhida tarbiyalashdan iborat edi. Milliylik esa o'zbek maktablari mazmunidan chiqarila boshlandi. Maktablardagi tarbiya Yevropa tarixi misolida olib borildi. Yevropa madaniyati, tarixi amalda baynalmillilik namunasi sifatida talqin etildi. Natijada, o'zbek o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash, urf-odat, milliy an'analarga sodiqlik kayfiyatidan ajralish hollari ro'y bera boshladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Алина Свердлова-Александрова Школьные учителя в Советском Союзе//[https://lenin.guru/школные-учители-в-советском-союзе/](https://lenin.guru/школные-учителя-в-советском-союзе/)
2. Mahmudnazarov G'. Yagona forma bo'lishi kerakmi?// O'qituvchilar gazetasi. 1987 yil 13 iyun.
3. Obъ ustave sredney obshcheobrazovatel'noy shkoly//<http://docs.ctnd.ru/document/901945749>
4. Ochilov M., Ochilova, N. O'qituvchiodobi. – T.: O'qituvchi, 1997.
5. Tajimirzayev E.A. XX asrning 60-80-yillarda Farg'ona vodiysi qishloqlari aholisining kundalik hayoti. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon, 2020.
6. Tohir Malik. O'qituvchi obro'i// O'qituvchilar gazetasi. 1989 yil 10 iyun.
7. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: SHarq, 2000.
8. O'qituvchi qadri//O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1984 yil 3 fevral.
9. ФВДА, ф.321, р.3, й.369 "Разовый учёт о результатах повышениэ заработнойплаты учителей и других работников учреждениэ народного образованиэ заапрель 1985 год".
10. Sharipova N.A. O'zbekistonda sovet davri maktab o'qituvchilarining ijtimoiy qiyofasi. Academic research in educational Sciences. Vol. 1 | ISSUE 3 | 2020.
11. Ergashev K. Razvitie obshcheobrazovatel'noy shkoly v Uzbekistane. 70-e—90-e gg.: problemy i tendentsii. — T. 1996.
12. Yakvalxo'jayev Yo. O'qituvchi shaxsini ulug'lab//O'qituvchilar gazetasi. 1989 yil 15 iyul.